



# IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



**VOL.3 № 4**

**2026**

## **BOSHLANG‘ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING IJODIY TASAVVURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Ismoilova Farangiz Maxmud qizi**

Samarqand davlat pedagogika instituti, 4-bosqich talabasi

**Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi**

Samarqand davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada 3-sinf ona tili darslarida o‘quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilingan. Boshlang‘ich ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning fantaziya, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati yoritib berilgan. Maqolada savol va topshiriqlar tizimi, matn ustida ishlash jarayoni, ijodiy yozma ishlar hamda interaktiv metodlar va usullar orqali o‘quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Bundan tashqari, dars samaradorligini oshirishda metodlarning to‘g‘ri tanlanishi va o‘quvchilarning va yosh xususiyatlarini inobatga olish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari ona tili darslarida ijodiy topshiriqlardan samarali foydalanish o‘quvchilarning tasavvurini kengaytirish va ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** ijodiy tasavvur, tafakkur, fantaziya, mustaqil fikrlash, boshlang‘ich ta‘lim, ona tili darsi, metodik yondashuv, savol va topshiriqlar, interaktiv metodlar, ijodiy faoliyat.

## **МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКОГО ВООБРАЖЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РОДНОГО ЯЗЫКА В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**

**Исмоилова Фарангиз Махмуд кизи**

Самаркандский государственный педагогический институт, студентка 4 курса

**Сайфиддинова Джамила Зиёдулла кизи**

Самаркандский государственный педагогический институт, преподаватель

### **Аннотация**

В статье анализируются теоретические и практические аспекты развития творческого воображения учащихся на уроках родного языка в 3 классе. Освещается значение формирования у учащихся навыков фантазии, самостоятельного мышления и творческого подхода в процессе начального образования. Рассматриваются система вопросов и заданий, работа с текстом, творческие письменные работы, а также интерактивные методы как средства активизации мыслительной деятельности учащихся. Обосновывается необходимость правильного выбора методов обучения с учетом возрастных особенностей учащихся для повышения эффективности урока. Результаты исследования показывают, что эффективное использование творческих заданий способствует развитию воображения учащихся и повышению качества образования.

**Ключевые слова:** творческое воображение, мышление, фантазия, самостоятельное мышление, начальное образование, урок родного языка, методический подход, система заданий, интерактивные методы, творческая деятельность.

## **METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' CREATIVE IMAGINATION IN PRIMARY SCHOOL NATIVE LANGUAGE LESSONS**

**Ismoilova Farangiz Maxmud qizi**

Samarkand State Pedagogical Institute, 4th-year student  
**Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi**  
Samarkand State Pedagogical Institute, Lecturer

### **Abstract**

This article analyzes the theoretical and practical aspects of developing students' creative imagination in 3rd-grade native language lessons. It highlights the importance of fostering imagination, independent thinking, and creative approaches in primary education. The study discusses systems of questions and tasks, text-based activities, creative writing, and interactive methods as means of activating students' cognitive processes. It also substantiates the need for appropriate selection of teaching methods and consideration of students' age characteristics to improve lesson effectiveness. The findings show that effective use of creative tasks enhances students' imagination and improves the quality of education.

**Keywords:** creative imagination, thinking, fantasy, independent thinking, primary education, native language lesson, methodological approach, system of tasks, interactive methods, creative activity.

Dunyo miqyosida XXI asr ta'lim taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy omil sifatida e'tirof etilgan bo'lib, axborotlashgan jamiyatda o'quvchi-yoshlarning ta'limning eng ilg'or texnologiyalari vositasida sifatli bilim olishi hamda ta'lim jarayonlariga elektron axborot resurslarini joriy etish zamonaviy ta'limning global tendensiyasiga aylandi. Zero, jahon amaliyotida rivojlangan mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha: yangi ta'lim konsepsiyasida "Ta'lim – taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat" – [1]deya e'tirof etilgan.

Ma'lumki, ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va tasavvur qilish qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir. Hozirgi kunda dunyo miqyosida barkamol shaxsni tarbiyalash, uning ijodiy salohiyatini rivojlantirish, tafakkurini kengaytirish ta'lim jarayonining markaziy masalasiga aylanib bormoqda. Boshlang'ich ta'lim davri – bu o'quvchilarning tafakkuri, xotirasi, tasavvuri va ijodkorlik qobiliyatlari faol rivojlanadigan davrdir. Aynan shu bosqichda o'quvchilarda atrof-muhitni idrok etish, tasvirlash va yangi obrazlar yaratish qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun boshlang'ich sinfda ona tili darslarini ijodiy yondashuv asosida tashkil etish o'quvchilarning nafaqat nutqiy, balki estetik va ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va interfaol o'yin shakllaridan foydalanish o'qituvchiga o'quvchini faol, ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash imkonini bermoqda. Xususan, didaktik o'yinlar, ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar, "aqliy hujum" usuli rolli o'yinlar kabi metodlar o'quvchilar mustaqil fikrlash, obrazli tasavvur va tahliliy yondashuvni shakllantirishda katta samara beradi. Shuningdek, o'qituvchi dars jarayonida o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olib, har bir bolaga individual yondashuvni amalga oshirisa, bu ularning o'ziga ishonchini oshiradi, darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Shunda ona tili darslari nafaqat grammatik bilim berish vositasiga, balki o'quvchilarni ijodkorlikka, mustaqil fikr bildirishga, yangi g'oyalar yaratishga o'rgatadi. Shunday qilib, boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida o'quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish nafaqat ularning til va nutq kompetensiyasini shakllantiradi, balki kelgusida mustaqil, keng fikrlovchi shaxs bo'lib voyaga yetishiga poydevor yaratadi.

Ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatini hamda ilodiy tasavvurini rivojlantirish bo'yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tasavvurini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida uzoq yillardan buyon o'rganilib kelinmoqda. Mazkur yo'nalishda ko'plab xorijiy va o'zbek olimlari o'z ilmiy qarashlarini ilgari surganlar. Umumiy o'rta ta'lim tizimida

o'quvchilar tafakkurini o'stirish, o'quv-biluv jarayonini ijodiy tashkil etish, muammoli izlanish metodi, ijodiy ishlar, didaktik o'yinlarning o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatiga va tafakkuriga ta'siri qator olimlar tadqiqotlari obyekti bo'lib kelgan. Masalan, adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish jarayoni Q.Husanboyevaning [6] tadqiqotida o'z aksini topgan.

Professor Q.Yo'ldoshev "Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari" [] mavzusidagi tadqiqotida adabiyot darslarini pedagogik hamkorlik asosida tashkil etish yo'llarini ishlab chiqqan.

A.Choriyev ijodiy fikrlash faoliyatini shaxs ijodiylikining asosiy komponenti sifatida [4] falsafiy jihatdan tahlil qilgan bo'lsa, tafakkurning psixologikasoslarini E.G'oziyev, V.Karimova va Z.Nishonovalar [5, 7, 8] o'z tadqiqotlarida ochib berganlar.

Ammo mazkur ilmiy izlanishlar va ilmiy-metodik adabiyotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatishning ayrim komponentlarigina o'rganilgan bo'lib, o'quvchini ta'lim subyekti darajasiga o'tarish ko'zda tutilmagan. Shu bilan birga boshlang'ich sinf oquvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish usullarini tizimlashtirilmagan.

Prezident Sh. M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Farzandlarimiz zamonaviy bilimlar bilan birga, chuqur tafakkur, mustaqil fikr va ijodiy qarashga ega bo'lishi kerak" [1]. Ushbu fikr zamonaviy ta'limning shunchaki bilim berishdan tashqari, shaxsiy rivojlanishga, ijodiy fikrlashga va tanqidiy yondashuvga yo'naltirilgan bo'lishi zarurligini ko'rsatadi. Shu jihatdan, boshlang'ich sinf darslari, ayniqsa, ona tili fanining ta'lim-tarbiyaviy imkoniyatlari o'quvchining ichki salohiyatini to'laqonli ochib berishga qaratilishi kerak. Ammo amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, aksariyat hollarda ona tili darslari faqat grammatik qoidalarni o'rgatish, savod o'rgatish bilan chegaralanib qolmoqda. Holbuki, ona tili darslari ayni paytda bolani so'z orqali ijod qilishga, hikoya to'qishga, o'z tasavvurlarini ifoda etishga undaydigan muhim pedagogik maydon bo'lishi mumkin. Bu esa o'z navbatida muayyan pedagogik shart-sharoitlarni talab qiladi: o'quvchining erkin fikrlashi uchun qulay psixologik muhit, o'qituvchining ijodiy yondashuvi, zamonaviy metod va vositalardan foydalanish, topshiriqlarning mazmunan ijodiy yondashuvga yo'naltirilganligi va baholash tizimining rag'batlantiruvchi xarakterga ega bo'lishi.

Boshlang'ich sinf dars jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarning ijodiy tasavvurini shakllantirish va rivojlantirish, avvalo, ularni erkin va mustaqil fikrlashga yo'naltirish orqali amalga oshiriladi. chuni o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda eta boshlasa, u o'rgangan bilimlarini yangi shaklda qo'llash, voqealarni o'z tasavvuriga ko'ra qayta yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ijodiy tasavvur bolaning tafakkur faoliyatida muhim o'rin tutadi, chunki tasavvur orqali u real hayotdagi narsalarni o'z xayolida o'zgartiradi, ularga yangi ma'no va shakl beradi. Shu bois, o'qituvchi dars jarayonida o'quvchini tayyor fikrni takrorlashga emas, balki o'z tasavvuri va g'oyasini ifoda etishga undashi lozim. Bu borada, Q.Yo'ldoshevning, "Yangi pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy metodik asoslari"[9] nomli doktorlik dissertatsiyasida ilgari surilgan maktab adabiy ta'limini yangilashning metodik asoslari va yangicha pedagogik tafakkur taqaviyoti borasidagi fikrlariga tayanish lozim.

O'quvchi kompozitsiyasini bajarishda barcha narsani naturadan oladi va tasavvuriga ko'ra, "o'zi bilganicha" biror narsani hal qilishga qo'rqadi. Ishga bunday yondashuv ijodiy tasavvurni, ko'z xotirasini muvaffaqiyatli rivojlanishini sekinlashtirib qo'yadi. Bunga o'xshash metodlarda yuqoridagilar umuman rivojlana olmaydi. Ijodiy faoliyatga bo'lgan talab muayyan yangi mahsulotga ommaviy zaruriyat orqali paydo bo'ladi. Aynan mana shu ijodiy g'oyalarning, o'ylarning hosil bo'lishiga olib keladi, yangilikni yaratishga turtkulovchi kuch bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi ongining rivojlanishi va tasavvuri amaliy faoliyatda shakllanadi. Qiyofalar yarata turib, ularni muayyanlashtiradi, boyitadi, ya'ni ish davomida ularni doim o'zgartirib boradi hamda tasviriy faoliyatining yurishida xira, noaniq ijodiy o'ylarni ro'yobga chiqarishiga imkon beradi[3]. Har bir ijodiy faoliyat kabi badiiy ijod ketma-ket bog'langan vazifalarni hal etishdir. Shunga ko'ra bu vazifalar bir-birining ketma-ketligiga qat'iy rioya qilishi shart va xuddi shunday ketma-ketlikda

odatda ijodiy tasavvurini birlashishiga olib keladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari tasavvur tushunchasi orqali o'rganishi uchun qo'llanmalar, "4K modeli" asosida yaratilgan darsliklar, qiziqarli mashg'ulotlar va sifatli metodlar juda muhimdir. Bu vositalar tasavvurida o'zlarining fikrlarini, hikoyalarini yaratish va bayon qilish imkoni beradi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning nutqiy faoliyati, tafakkuri va tasavvuri aynan ona tili darslarida shakllanadi. 3-sinf bosqichi esa o'quvchilarda grammatik tushunchalar tizimli ravishda shakllanadigan muhim davr hisoblanadi. Shu bois, tadqiqot doirasida 3-sinf Ona tili fanining „Gap va uning turlari“ mavzusi tanlab olindi. Mazkur mavzu o'quvchilarda darak, so'roq, buyruq va undov gaplarning mazmuniy hamda garmmatik xususiyatlarini anglash bilan birga, ularni nutqda ongli qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi. Aynan shu jarayonda o'quvchilarning ijodiy tasavvuri faol ishlaydi. Chunki har bir gap turi ma'lum vaziyat, hissiyot yoki voqelikni ifodalash bilan bog'liqdir.

- Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi;
- Pedagogik kuzatuv metodi;
- Tajriba-sinov metodi;
- Suhbat va savol-javob metodi;
- Ijodiy topshiriqlarni tahlil qilish metodi;
- Taqqoslash va umumlashtirish metodi;

Bundan tashqari mavzunu o'qitishda an'anaviy usullar bilan bir qatorda nostandart, ijodiy topshiriqlardan foydalanildi. Jumladan:

- Rasm asosida turli gap turlarini tuzish;
- Berilgan vaziyatga mos darak, so'roq, buyruq va undov gaplar yaratish;
- Kichik hikoya tuzishda barcha gap turlaridan foydalanish;
- Rolli o'yinlar va sahnalashtirish mashg'ulotlarini tashkil etish.

Mazkur metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, nutqiy faolligi, gap turlarini ongli qo'llash ko'nikmasi hamda ijodiy tasavvuri rivojlantiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ona tili darslarida ijodiy topshiriqlardan tizimli foydalashin o'quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini mustahkamlaydi, balki ularning erkin fikrlash, voqealarni tasavvur qilish va mustaqil matn yaratish qobiliyatini ham samarali rivojlantiradi.

Ma'lumki, ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar doimiy holatda qolmaydi, o'qitishning har bir bosqichiga mos ravishda o'zgarib, takomillashib boradi. Boshlang'ich ta'limni samarali tashkil etishda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va ular asosidagi metodlardan keng foydalanilmoqda. Ayniqsa, interfaol ta'lim metodlari o'quv jarayonining sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu metodlar o'quvchilarning darsdagi ishtirokini faollashtirib, ularning intellektual salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini beradi. Eng muhim jihati shundaki, o'quvchilar mashg'ulot davomida o'zaro hamkorlikda ishlash orqali bir-biridan o'rganadilar, o'z fikrlarini erkin bayon etadilar va ijodiy tasavvurini hamda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Natijada interfaol metodlardan foydalanish nafaqat bilimlarni o'zlashtirishga, balki o'quvchilarning bilish faoliyatini kuchaytirishga, o'quv jarayonini hamkorlik va o'zaro yordam ruhida olib borishga zamin yaratadi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, ularning tafakkurini faollashtirish hamda o'z fikrini erkin ifoda etishga o'rgatish muhim o'rin tutadi. Bu borada o'qitishning interfaol metodlaridan biri – “Klaster” metodi (ingilizcha cluster – “g'oya to'plami”, “tarmoq”) alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu metod o'quvchilarning tafakkur faoliyatini kuchaytirish, ularning mavjud bilimlari asosida yangi g'oyalarni shakllantirish, fikrlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni anglash va umumlashtirishga o'rgatadi. “Klaster” metodi asosan o'quvchilarda tasavvur, xotira, mantiqiy bog'lanish va ijodiy fikrlashni rivojlantirishni maqsad qiladi. U o'quvchilarning biror mavzu, so'z yoki tushuncha yuzasidan o'z fikrlarini to'plab, ularni tarmoq shaklida ifodalash imkonini beradi. Bu jarayon orqali o'quvchi o'z ongidagi bilimlarni tizimlashtiradi, mavzuga nisbatan o'ziga xos fikrlar hosil

qiladi va ularni umumiy g'oya asosida birlashtiradi.

Mazkur metodning vazifasi o'quvchilarda:

- mantiqiy bog'lanishlarni anglash;
- mavzuni yaxlit tasavvur qilish ;
- yangi g'oyalarni topish va ulardan foydalanish;
- ijodiy tasavvurni rivojlantirish kabi ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.

“Klaster” metodini dars jarayonida qo'llash, ayniqsa, boshlang'ich sinf Ona tili va O'qish savodxonligi fanlarida samarali natija beradi. Bu metod orqali o'quvchilar o'z bilimlarini vizual shaklda tarbiyalaydilar, ularning o'ylash, tahlil qilish va xulosalash ko'nikmalari rivojlanadi. Masalan, 3-sinf Ona tili fanining “Bahor fasli” bo'limida o'quvchilarning ijodiy tasavvurini rivojlantirish uchun ushbu metodan foydalanish mumkin.

Dars jarayoni quyidagicha tashkil etiladi:

- O'qituvchi o'quvchilarga “Bahor” so'zini markazga yozadi.
- O'quvchilar ushbu so'z bilan bog'liq so'z, ibora, his-tuyg'u, rang, tovush, hodisa, manzara yoki hayvon nomlarini aytishadi.
- O'qituvchi ularning javoblarini doskada tarmoqli shaklda yozib boradi (masalan: quyosh, yomg'ir, gullar, qushlar, quvonch, tabiat uyg'onishi va h.k.)
- Hosil bo'lgan “g'oyalar tarmog'i” asosida o'quvchilar kichik matn, she'r yoki tavsif yozishadi.

Bu jarayon o'quvchilarga mavzuga nisbatan emotsional munosabatni shakllantiradi, ularning tasavvuri, so'z boyligi va nutq madaniyatini rivojlantiradi. Eng muhimi, har bir bola o'z tasavvur olamidani kelib chiqib, mustaqil fikr bildiradi va bu fikrlar o'qituvchi tomonidan baholanmaydi. “Klaster” metodidan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini, ijodiy tasavvurini, shuningdek, tasviriy ifoda va obrzali tafakkurni rivojlantiradi. O'qituvchi bu jarayonda yo'naltiruvchi rolini bajaradi – u bolalarni fikrlashga undaydi, ammo tayyor javob bermaydi. Natijada o'quvchilar o'z fikrlarini mustaqil shakllantirishni, ularni mantiqan bog'lashni va ijodiy tarzda ifodalashni o'rganadilar.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish – ularning tafakkuri, hissiy idroki va shaxsiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodiy tasavvur o'quvchini atrof – muhitni chuqurroq anglashga, voqealikni o'z xayolida qayta yaratishga va yangi g'oyalar ilgari surishga undaydi. Ona tili darslarida ijodiy topshiriqlar, rolli o'yinlar, rasm asosida hikoya tuzish, hikoyani davom ettirish kabi mashg'ulotlardan foydalanish o'quvchilarda xayoliy fikrlashni faollashtiradi, ularni so'z boyligini kengaytirishga va mustaqil ifoda qilishga yo'naltiradi. Bu jarayon orqali o'quvchi o'z fikrini erkin bayon etishni, yangi yangi obrazlar yaratishni va ijodiy yondashishni o'rganadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi dars jarayonida o'quvchining shaxsiy qiziqishlari, qobiliyat va ehtiyojlarini hisobga olib, uni mustaqil izlanishga yo'naltirish lozim. Chunki har bir bola o'z imkoniyatlari va xayolot dunyosiga ega. Shu sababli, ijodiy tasavvurni rivojlantirishda o'qituvchi rahbar, maslahatchi va hamkor sifatida faol ishtirok etishi zarur. Ijodiy tasavvurni rivojlantirish orqali o'quvchilarda nafaqat bilim, balki o'z fikrini mustaqil shakllantirish, muammoga turlicha yondashish, o'z ijod mahsulini yaratish malakalari shakllanadi. Natijada, ta'lim jarayoni jonlanadi, o'quvchi esa o'zini namoyon eta oladigan, fikrlaydigan va ijodiy izlanadigan shaxs sifatida shakllanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: O'zbekiston, 2020. 464 bet.
2. Azimova I. Ona tili: 3-sinf uchun darslik – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. 80 bet.
3. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006. 132 bet.
4. Choriyev A. Inson falsafasi: Inson to'g'risidagi falsafiy fikrlar taraqqiyoti. 1- kitob. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashri. -T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
5. G'oziyev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. 352 bet

6. Husanboyeva Q. Boshlang‘ich sinflarda adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: Innovatsiya – ziyo, 2020. 355 bet.
7. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. 172 bet
8. Nishonova Z., Alimova G. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 152 bet
9. Yo‘ldoshev Q. Yangicha pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy – metodik asoslari. Ped. fan. doktor...diss – T., 1997. 355 bet.
10. <https://academia.com>
11. <https://diss.natlib.uz>
12. <https://ziyo.uz>